

HUNARMANDCHILIK RISOLALARIDA ILM TUSHUNCHASI HAQIDA

Po'latov Otabek Orifjon o'g'li

*Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros
ilmiy tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Turkiston hududida shakllangan hunarmandchilik risolalari kasbiy-madaniy merosning muhim yozma manbasi sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda risolalarda "ilm" tushunchasining mazmun-mohiyati, uning shakllanishini payg'ambarlarga bog'lanishi hamda kasbiy bilimni diniy jihatdan asoslashdagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, hunarmandchilik faoliyatining normativ tartibga solinishi, ustoz-shogird tizimi, pirlar silsilasi va axloqiy-me'yoriy qarashlar yoritiladi. Risolalarda ilmning normativ, ijtimoiy va ma'naviy-intizomiy funksiyalari tahlil qilinib, uning hunarmandlik faoliyatini qadrlash, ijtimoiy ierarxiyani shakllantirish hamda ichki nazorat mexanizmi sifatidagi roli asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *hunarmandchilik, risola, ilm, asoslash, ustoz-shogird tizimi, pirlar silsilasi, tasavvuf, axloq.*

Abstract. *This article analyzes craft treatises (risolas) formed in the Turkestan region as an important written source of professional and cultural heritage. The study reveals the essence of the concept of "knowledge" (ilm), its connection with divine origin, and its role in the religious legitimation of professional knowledge. It also examines the normative regulation of craftsmanship, the master-apprentice system, the lineage of pirs, and ethical frameworks. The functions of knowledge in risolas are analyzed as normative, social, and moral-disciplinary mechanisms, demonstrating its role in sacralizing craftsmanship, shaping social hierarchy, and establishing internal control systems.*

Keywords: *craftsmanship, risola, knowledge (ilm), legitimation, master-apprentice system, lineage of pirs, Sufism, ethics.*

Hunarmandchilik risolalari Turkiston hududida shakllangan kasbiy-madaniy merosning muhim yozma manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu risolalar nafaqat muayyan hunar turlarining texnologik jihatlarini bayon etuvchi qo'llanmalar, balki hunarmandchilik faoliyatini diniy, axloqiy va ijtimoiy mezonlar asosida tartibga soluvchi normativ matnlar sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, risolalardagi rivoyat va ibratli matnlardan shogirdlarni tarbiyalash, hunarmandlarning o'zaro munosabatlari, ustoz-shogird an'analarini tartibga solish, jamoa munosabatlari normalarini aniqlash maqsadida ham foydalanilgan. Risola, o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra, har bir hunarmandchilik turida mavjud bo'lgan kasbning yoki hunarning nizomi, ya'ni, asosiy qonun-qoidalar bitilgan hujjat

hisoblanadi⁹³. Shu jihatdan qaraganda, risolalarda ilgari surilgan “ilm” tushunchasi oddiy amaliy ko‘nikma yoki tajriba emas, balki diniy jihatdan asoslangan, ulug‘langan va ijtimoiy jihatdan asoslangan bilim tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – hunarmandchilik risolalarida “ilm” tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish hamda uning kasbiy bilimni diniy jihatdan asoslashdagi o‘rnini tahlil etishdan iborat. Tadqiqot davomida to‘quvchilik, temirchilik ohangarlik, duradgorlik va poyabzaldo‘zlik risolalari materiallari asosiy manba sifatida jalb qilinadi.

Avvalo ta’kidlash lozimki, risolalarda hunar “ilm” sifatida talqin qilinadi va bu ilmning manbai payg‘ambarlar, farishtalar va sahobalar bilan bog‘lanadi. Jumladan, to‘quvchilik risolasida hunarning kelib chiqishi Odam alayhissalom va Shis nabiy bilan bog‘lanib, bu kasb farishta Jabroil tomonidan ta’lim berilgani qayd etiladi⁹⁴. Bu yerda muhim jihat shundaki, kasbiy bilim insoniy tajriba mahsuli sifatida emas, balki vahiy orqali berilgan ulug‘ ilm sifatida talqin qilinmoqda. Shu orqali hunar egallash jarayoni oddiy o‘rganish emas, balki qadimiy, chuqur ildizlarga ega bilimni qabul qilish shakliga kiradi.

Xuddi shunday holat temirchilik risolasida ham kuzatiladi. Unda temirchilik ilmi Dovud alayhissalomga Alloh tomonidan ato etilgani, Jabroil orqali o‘rgatilgani alohida ta’kidlanadi⁹⁵. Bu yerda “ilm” tushunchasi bevosita qadrlangan bilim sifatida berilib, uning qadrlanishi asoslanadi. Shu sababdan ham hunar bilan shug‘ullanish diniy jihatdan targ‘ib qilinadi va ulug‘ faoliyat sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, risolalarda ilm faqat nazariy yoki texnologik bilim bilan cheklanmaydi. U axloqiy va diniy me’yorlar bilan chambarchas bog‘langan holda talqin qilinadi. Hunarmanddan nafaqat kasb sirlarini bilish, balki tahoratda bo‘lish, halollikka rioya qilish, pirlarni e’zozlash, zikr va duo bilan ish boshlash kabi talablar ham qo‘yiladi. To‘quvchilik risolasida keltirilgan o‘n ikki arkon (poklik, tahorat, namoz, zikr, xayr-saxovat va boshqalar) aynan shu jihatni yaqqol namoyon etadi⁹⁶. Demak, bu yerda ilm – bu faqat bilish emas, balki to‘g‘ri yashash va to‘g‘ri amal qilishni ham o‘z ichiga oluvchi umumiy tushunchadir.

Shuningdek, risolalarda ilmga amal qilmaslik salbiy diniy oqibatlar bilan bog‘lanadi. Jumladan, risolaga amal qilmagan ustozning topgan rizqi harom bo‘lishi⁹⁷, pirlar oldida sharmanda bo‘lishi, kasbida baraka bo‘lmasligi kabi ogohlantirishlar uchraydi. Bu orqali ilm majburiy amal tizimi sifatida talqin qilinadi, ya’ni uni bilishning o‘zi kifoya emas, balki unga qat’iy rioya qilish talab etiladi.

Hunarmandchilik risolalarida “ilm” tushunchasi nafaqat mazmuniy jihatdan, balki funksional nuqtayi nazardan ham murakkab va ko‘p qatlamli tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

⁹³ Давлатова С. Ўзбек анъанавий хунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида (*Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудлари мисолида*) – Тошкент: Yangi nashr, 2018. – Б. 280.

⁹⁴ О‘зР FA ShI toshbosmasi, inv № 756. Б. 138.

⁹⁵ О‘зР FA ShI toshbosmasi, inv № 749. Б.3.

⁹⁶ О‘зР FA ShI toshbosmasi, inv № 756. Б.140.

⁹⁷ О‘зР FA ShI toshbosmasi, inv № 749. Б.34.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu manbalarda ilm uch asosiy yo'nalishda faoliyat yuritadi: normativ tartibga soluvchi mexanizm, ijtimoiy qonuniylashtirish vositasi va ma'naviy-intizomiy nazorat tizimi sifatida.

Birinchidan, ilm normativ tizim vazifasini bajaradi. Risolalarda hunarmandlik faoliyati qat'iy qoidalar asosida tartibga solinadi va bu qoidalar "ilm" sifatida taqdim etiladi. Masalan, to'quvchilik va temirchilik risolalarida ishni qanday boshlash, qanday duolar o'qish, qaysi vaqtda takbir aytish, qanday holatda poklik saqlash kerakligi aniq ko'rsatib beriladi. Bu esa hunarmandlikni erkin amaliy faoliyatdan chiqarib, qat'iy me'yorlarga asoslangan tizimga aylantiradi. Natijada ilm – bu faqat bilim emas, balki kasbiy xulq-atvorni boshqaruvchi normativ kodeks sifatida ishlaydi.

Ikkinchidan, ilm ijtimoiy qonuniylashtirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Risolalarda ustozlik maqomi ilm bilan bevosita bog'lanadi. Xususan, "risolani bilmagan kishi shogird olishga haqli emas"⁹⁸ degan mazmundagi fikrlar ilmni kasbiy vakolatning asosiy sharti sifatida belgilaydi. O'z navbatida shogirdlarga ham faqatgina o'z kasbi bilan bog'liq bilimlarni puxta egallagan taqdiridagina mustaqil ish yuritishga ruxsat berilgan⁹⁹. Shu tariqa hunarmandlar jamiyatida tabaqalanish shakllanadi: ilmga ega ustoz – yuqori maqom, ilmni egallayotgan shogird – pastki pog'ona. Demak, ilm ijtimoiy maqomni belgilovchi va uni asoslovchi asosiy mezonga aylanadi.

Uchinchi jihat – ilmning ma'naviy-intizomiy nazorat vositasi sifatidagi funksiyasidir. Risolalarda ilmga amal qilish diniy majburiyat sifatida talqin qilinadi va unga rioya qilmaslik og'ir oqibatlar bilan bog'lanadi. Masalan, risolalarda "ilmga amal qilmagan kishining kasbi harom bo'ladi"¹⁰⁰, "pirilar arvohi undan norozi bo'ladi", "qiyomatda sharmanda bo'ladi" kabi ogohlantirishlar uchraydi. Bu kabi qarashlar ilmni ichki nazorat mexanizmiga aylantiradi. Ya'ni, hunarmand tashqi majburiy nazoratsiz ham o'z faoliyatini diniy mas'uliyat asosida tartibga soladi.

Shuningdek, risolalarda ilmning marosimiy-amaliy ko'rinishlari ham muhim o'rin tutadi. Ish jarayonida oyat va salovotlar o'qish, takbir aytish, pirlar ruhiga bag'ishlash kabi amallar ilmning tarkibiy qismi sifatida beriladi. Bu holat ilmni abstrakt bilim emas, balki kundalik faoliyatga singdirilgan amaliy tizim sifatida ko'rsatadi. Natijada hunarmandning har bir harakati diniy mazmun kasb etadi va kasbiy faoliyat ibodatga yaqinlashtiriladi.

Shu bilan birga, risolalarda ilgari surilgan g'oyalarning aksariyati tasavvuf, xususan, so'fiylikdagi g'oyalar bilan o'xshashligini ko'rish mumkin. So'fiylikda halol va pokiza kasb tutish tariqatning zaruriy shartlaridan hisoblanib, biror kasb bilan shug'ullanmagan inson jamiyatdan foyda ko'rib, o'zi foyda bermagan, o'zini xalq bo'yniga yuklagan bo'ladi va odamlarning iztirobiga sabab bo'ladi, deb bilganlar¹⁰¹. So'fiylik ta'limotida qo'l mehnati

⁹⁸ O'zR FA ShI toshbosmasi, inv № 756. B.144.

⁹⁹ Hudayberganov H. Xorazm kulolchiligi (etnologik tadqiqot). Toshkent: Lesson press, 2023. – B.84.

¹⁰⁰ O'zR FA ShI toshbosmasi, inv № 749. B.34.

¹⁰¹ Кошифий Х. В. Футувватномаи султони / Форс-тожик тилидан Н. Комилов таржимаси. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ нашриёти, 1994. – Б.69.

bilan kun kechirish, ya'ni, o'z hunari bilan rizq topishga chaqiriladi. Risolalarda ham aynan shunday g'oyani ko'rish mumkin. Unga ko'ra, insonlar rizqini haloldan topib, hunar bilan shug'ullanish va ahli ayoliga halol rizq berishga chaqiriladi¹⁰². Hunarga payg'ambarlar shug'ullangan kasb sifatida qarab, uni e'zozlashga chaqiriladi. Har bir risolada mazkur hunar eng ulug' kasb sifatida e'tirof etiladi.

Tasaffuv tariqati namoyandalari ham faqat ibodat bilan cheklanib, dunyoviy ishlarni unutishga chaqirmaydi, balki, Muhammad alayhissalomning: "Kosib (kasb egasi, hunarmand) Allohning do'stidir"¹⁰³ mazmunidagi hadisga amal qilgan holda halol rizq yo'lida mehnat qilganlar. Shu sababdan, tariqatga kirayotgan insonning eng avvalo hunariga, kasb-koriga e'tibor qaratganlar. Jumladan, Turonda eng keng yoyilgan tariqatlardan biri Naqshbandiya tariqatiga kirmoqchi bo'lgan inson bir hunarni egallagan bo'lishi shart etib belgilangan. Bundan ushbu tariqat vakillari o'z oilasi, qon-qarindosh va jamoasini o'z mehnati bilan qo'llab-quvvatlashi kerakligiga urg'u berganligi, qolaversa, jamiyatga ham o'z hunari bilan foyda keltirishga chaqirilganini anglash mumkin. Bu aholining muhtoj qismini shariatdagi zakotu, fitri ro'za, sadaqa va xayru ehsonga umid bog'lab turishdan ko'proq himoya qilgan va faol hayot tarziga undagan¹⁰⁴. Ushbu tariqatning bosh g'oyasi "Diling Allohda bo'lsin, qo'ling mehnatda bo'lsin" bo'lganligi ham ushbu tariqat vakillarining hunarga nisbatan munosabatini aks ettiradi.

Tariqat vakillarining faoliyatiga nazar solsak, Turonda eng mashhur tariqat namoyandalari hunarmandchilik bilan shug'ullanganligi va hunarmandchilik uyushmalariga boshchilik qilganligini ko'rish mumkin. Jumladan, Ahmad Yassaviy yog'och qoshiq yasash¹⁰⁵, Xoja Bahouddin Naqshband matolarga naqsh bosish¹⁰⁶, Mustafoqul Suzuk ota esa o'ymakorlik¹⁰⁷, Qaffol Shoshiy esa qulf yasash¹⁰⁸ bilan shug'ullangan. Yuqorida nomlari tilga olingan allomalarning barchalari hunarmandlarga boshchilik qilib, ularga tariqat va shariat bilan birga hunardan ham dars berganlar. Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, tasavvuf namoyandalari faqatgina ibodat bilan cheklanib qolmay, halol rizq topish yo'lida mehnat qilganlar va o'zlariga ergashganlarni ham mehnat qilishga, hunar o'rganishga chorlaganlar.

O'z navbatida, hunarmandchilik risolalari ham hunarmandlarni tariqat ahli bilan maslahatlashib ish ko'rishga chorlashini ko'rish mumkin¹⁰⁹. Bundan maqsad, hunarmandlarni tariqatga da'vat etish, uning shartlari, qonun-qoidalarini hunarmandlar orasida keng yoyishdir. Shu bilan birga, tasavvuf vakillarining asosiy targ'ibot joyi sifatida bozorlar xizmat

¹⁰² O'zR FA ShI toshbosmasi, inv № 756. B.103.

¹⁰³ O'zR FA ShI toshbosmasi, inv № 756. B.116.

¹⁰⁴ Наврӯзова Г. Нақшбандия – камолот йўли. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.170.

¹⁰⁵ Яссавий А., Боқирғоний С. Ҳикматлар / Тузувчи, сўзбоши ва изохлар муаллифи Э. Очилов. Тошкент. 2013. Б.12.

¹⁰⁶ Уватов У. Буюк юрт алломалари. – Тошкент: Ўзбекистон. 2018. – Б.280.

¹⁰⁷ Шодиметов К. Сузук ота изидан. – Тошкент: Фафур Фулом, 2023. – Б.177.

¹⁰⁸ Буюк юрт алломалари... – 111-бет.

¹⁰⁹ O'zR FA ShI toshbosmasi, inv № 5003. B. 9.

qilganligini qayd etish joiz. Buning sababi, hunarmandlar ko'proq bozorlar va uning atrofida o'z faoliyatlarini yuritganlar.

Hunarmandchilik risolalari tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda "ilm" tushunchasi oddiy kasbiy ko'nikma yoki amaliy tajriba darajasidan ancha yuqori qo'yilib, murakkab diniy-ijtimoiy mazmunga ega konsept sifatida shakllangan. Mazkur manbalarda ilm hunarni egallash vositasi emas, balki hunarmandning butun faoliyatini tartibga soluvchi va unga ma'no beruvchi asosiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi.

Birinchidan, risolalarda ilmning payg'ambarlarga bog'lanishi kasbiy bilimni ulug'lanishiga xizmat qiladi. Bu yo'l bilan hunar oddiy ishlab chiqarish faoliyatidan chiqarilib, diniy qadriyat darajasiga ko'tariladi. Natijada hunarmandlik faoliyati ibodatga tenglashtiriladi.

Ikkinchidan, ilm ustoz-shogird tizimi orqali avloddan – avlodga o'tadigan silsila sifatida talqin qilinadi. Bu esa kasbiy bilimni individual tajribadan ajratib, uni tarixiy davomiylikka ega va manbasi aniq bo'lgan ilm sifatida shakllantiradi. Shu orqali hunarmandlik an'anasi barqaror va uzluksiz tizimga aylanadi.

Uchinchidan, ilm axloqiy va diniy me'yorlar bilan uzviy bog'langan holda beriladi. Hunarmanddan nafaqat kasb sirlarini bilish, balki halollik, poklik, odob va diniy amallarga rioya qilish talab etiladi. Demak, ilm bu yerda bilish va amal birligini ifodalovchi kompleks tushunchadir.

To'rtinchidan, ilm hunarmandlar jamiyatida ijtimoiy maqom va vakolatni belgilovchi asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi. Risolani bilgan va unga amal qilgan ustoz kasbiy va ma'naviy yetakchi sifatida tan olinadi. Shu orqali ilm ijtimoiy ierarxiyani shakllantiruvchi omilga aylanadi.

Beshinchidan, ilm hunarmandlik faoliyatida ichki nazorat mexanizmini ta'minlaydi. Risolalarda ilmga amal qilmaslikning diniy oqibatlari qayd etilishi orqali hunarmand o'z faoliyatini mustaqil ravishda tartibga soluvchi intizomiy tizim shakllanadi.

Shunday qilib, hunarmandchilik risolalarida "ilm" tushunchasi uch darajada faoliyat yuritadi: birinchidan, hunarni ulug'lovchi g'oyaviy vosita sifatida; ikkinchidan, ijtimoiy tabaqalanishni shakllantiruvchi omil sifatida; uchinchidan, hunarmand faoliyatini nazorat qiluvchi intizomiy mexanizm sifatida. Aynan shu jihatlar orqali kasbiy bilim diniy asosda asoslanib, hunarmandlik faoliyati kengroq ijtimoiy va ma'naviy tizim tarkibiga kiritiladi.

Umuman olganda, hunarmandchilik risolalarida "ilm" tushunchasi kasbiy bilimni uzatish vositasi bo'lish bilan cheklanmaydi. U hunarmandni diniy, axloqiy va ijtimoiy tizim ichiga kirituvchi, uning faoliyatini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi kompleks mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu jihat hunarmandchilik risolalarining o'ziga xosligini belgilab, ularni nafaqat kasbiy qo'llanma, balki diniy jihatdan asoslashga bag'ishlangan matn sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hudaberganov H. Xorazm kulolchiligi (etnologik tadqiqot). – Toshkent: Lesson press, 2023. – 122 bet.
2. O‘zR FA ShI toshbosmasi, inv № 749.
3. O‘zR FA ShI toshbosmasi, inv № 756.
4. Давлатова С. Ўзбек анъанавий хунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида. Тошкент: Yangi nashr, 2018. – 368 бет.
5. Тўраева С. XVIII асрнинг иккинчи ярми – XIX асрнинг 70-йилларида Хива хонлиги хунармандчилиги тарихи. – Тошкент: Янги нашр, 2010. – 224 бет.
6. Сухарева О. Рисала как исторический источник // Источниковедение и текстология средневекового Ближнего и Среднего Востока. – Москва: 1984. Сс. 201 – 215.
7. Ҳамидова М. Қашқадарё воҳаси хунармандчилиги тарихи (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тошкент:Фан, 2009. 131 бет.
8. Мукминова Р. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI в. Ташкент. 1976. С. 236.
9. Кулолчилик рисоласи // Туркистон вилоятининг газети. 1887-йил. 4-сон. 4-бет.
10. Ҳакимов А. Ўзбекистон санати тарихи. – Тошкент: Zilol buloq, 2022. – Б.532.
11. Холмўминов У. Амир Темур ва темурийлар даври тоғ-консҳилиги ва металлургия хунармандчилиги // Мавераннахр в эпоху Амир Темура:археология, история култура. – Тошкент: Фан, 2018.
12. Темур тузуклари. – Тошкент: Фафур Фулом. 1991. Б.144.
13. Муҳаммаджонов А. Темур ва Темурийлар салтанати. Тошкент: Қомуслар, 1994.
-
14. Гумилев Л.Н. Қадимги турклар. Тошкент: Фан, 2007. – Б.500.
15. Бобур З.М Бобурнома. –Тошкент: Юлдузча, 1989. Б.368.